

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

MAXMUDOVA NODIRAXON JUMABOY QIZI

**MEBEL SANOATI KORXONALARIDA RISKNI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatimundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Maxmudova Nodiraxon Jumaboy qizi

Mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Махмудова Нодирахон Жумабой кизи

Совершенствование механизмов управления рисками на предприятиях мебельной отрасли27

Makhmudova Nodirakhon Jumaboy qizi

Improving risk management mechanisms at furniture industry enterprises.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

MAXMUDOVA NODIRAXON JUMABOY QIZI

**MEBEL SANOATI KORXONALARIDA RISKNI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.1.PhD/Iqt2048 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona politexnika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xankeldiyeva Guzal Sherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umarov Ilhom Yuldashevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Baymirzayev Dilmurod Ne'matovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.1.60.03 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2022 yil «__» soat__dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, email: agsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, email: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__»__kuni tarqatildi.
(2023 yil «__»__dagi __ - raqamli reyestr bayonnomasi).



N.I. Askarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.I. Maraimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, i.f.n., dotsent

A.T. Mirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, i.f.d., dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iste'molchilar uchun mebel mahsulotlariga bo'lgan talab uzoq xizmat qiladigan maishiy tovarlar orasida yengil mashinalardan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Italiyadagi industrial tadqiqotlar markazining (CSIL) ma'lumotlariga ko'ra, "2022-yilda jahonda mebel ishlab chiqarish hajmi 560,7 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan. 2013-yildan 2022-yilgacha mebel mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmining yarmidan ko'pi Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga to'g'ri keldi. Mebel bozoridagi daromad 2023-yilda 766,20 milliard AQSh dollarini tashkil etishi, 2027-yilgacha bozor har yili 5,02 % ga o'sishi prognozlanmoqda"¹. Mebel mahsulotlariga talab izchil rivojlanib, mebel bozorining sig'imi kengayib borayotganligi sohani rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, risklarni boshqarishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llashni talab etadi.

Jahonda yetakchi rivojlangan korxonalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish ko'lami va o'ziga xos xususiyatlaridan qat'iy nazar, sanoat korxonalarini boshqaruv tizimining elementi sifatida risklarni boshqarishni e'tiborga olmasdan va faol tatbiq etmasdan biznes barqarorligi va boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin emas. Bu yo'nalishdagi amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar foyda olish va biznes yo'qotishlarini kamaytirish o'rtasidagi zarur muvozanatga erishishga qaratilgan. Sanoat korxonalarida risklarning mavjudligi, muqarrarligi, ularni aniqlash va neytralizatsiya qilish zarurati risklarni uzluksiz aniqlash, tasniflash, risklarga ta'sir etuvchi omillarni tizimli o'rganish hamda ularni korxonalar iqtisodiy barqarorligiga ta'sirini baholash, zamonaviy milliy standartlarni ishlab chiqish, sanoat korxonalarini faoliyatiga faol tatbiq etish, risklarni boshqarish bo'yicha yangicha tadqiqotlarga zamin yaratish amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda mebel sanoati rivojlanib borayotgan sohalaridan biri bo'lib, aholining mebelga bo'lgan talabi oshgan sari mebel mahsulotlari importi hajmi ham oshib bormoqda. Ayni paytda mebel sanoati faoliyati import o'rnini bosishga xizmat qilishi zarur bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Davlat tomonidan mebel sanoatini qo'llab-quvvatlanishi natijasida tarmoq bozorida korxonalarining sonini ko'payishiga, mebel mahsulotlari bozorini monopoliyadan chiqarishga va erkin raqobat bozoriga aylanishiga erishildi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" deb nomlangan 22-maqсад bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan². Bunda mebel mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko'paytirish vazifasi nazarda tutilib, uning ijrosini ta'minlash mebel mahsulotlari sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va strategik maqsadlarga erishish uchun

¹<http://furnitureandfurnishing.com/global-furniture-outlook-2022/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni /www.lex.uz

mebel korxonalari xo‘jalik faoliyatida risklarni boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish va zamonaviy uslubiy yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 10-fevraldagi “Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-51-son qarori, 2021-yil 21-iyuldagi “Respublika hududlarida mebelsozlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5155-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-fevraldagi “Yog‘ochsozlik sanoati xomashyo bazasini mustahkamlash va sohani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 84-sonli qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi- ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida risklarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari bir qator xorij olimlari, jumladan, C.Holtdorf, M.Rudolf, Altman Edward, R.Chapman, K.Nayt, H.Frank, Michael R. Metel asarlarida tadqiq etilgan³.

MDH davlatlari olimlaridan A.A.Kudryavsev, Yu.Yu.Yekaterinoslavskiy, A.M.Medvedeva, V.N.Vyatkin, V.Ye.Kiryushkin, S.N.Vorobyev, K.V.Baldin, S.B.Bogoyavlenskiy, A.A.Ivanov, S.Ya.Oleynikov, N.V.Kuznesova, N.N.Makarova, V.S.Stupakov, G.S.Tokarenko, L.P.Goncharenko, S.A.Filin, A.K.Pokrovskiy, A.V.Barchukov asarlari risklarni boshqarishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolarining ba’zi jihatlari bag‘ishlangan. Ular risklarni baholash va boshqarishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini belgilaydi⁴.

³ Holtdorf C., Rudolf M. Risk management: Challenge and opportunity. Berlin: Springer Verlag, 2000. – 415 p; Altman Edward Corporate Financial Distress and Bankruptcy, 3rd edition. – John Wiley and Sons, 2005. Chapman R. Project risk management: Processes, Techniques and Insights. John Wiley and Sons, Chichister, 1997. Найт К. Риск-менеджмент - искусство управления // Управление качеством. - 2012. - № 1. - С.46-50; Frank H. Knight: Risk: Risk, Uncertainty and Profit. – Chicago Press. – 1971, 119 p. Michael R. Metel. Risk Management under Omega Measure. Risks. An open access Journal by MDPI, - 2017.

⁴ Кудрявцев, А.А. Управление рисками: учебное пособие / Г.В. Чернова, А.А. Кудрявцев. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. - 160 с.; Екатеринославский, Ю.Ю. Риски бизнеса: диагностика, профилактика, управление / Ю.Ю. Екатеринославский, А.М. Медведева, С.А. Щенков. – Москва: Анкил, 2010. - 280 с. Вяткин В.Н. Риск-менеджмент: учебник / В.Н. Вяткин, В.А. Гамза, Ф.В. Маевский. – М.: Юрайт. - 2015. – 350 с.; Кирыушкин В.Е., Ларионов И.В. Основы риск менеджмента. – М.: “Анкил”, 2009 г. – 132 с.; Воробьев С.Н., Балдин К.В. Управление рисками в предпринимательстве. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и Ко”, 2006. – 772.; Богоявленский С.Б. Управление риском (Риск-менеджмент): учебник / С.Б. Богоявленский. – СПб.: СПбГУЭФ, 2010. – 147 с.; Иванов А.А., Олейников С.Я.Бочаров С.А.Риск-менеджмент. Учебно-методический комплекс - М.: Изд. центр ЕАОИ, 2008. – 442с.; Кузнецова Н.В. Управление рисками: Учебное пособие – Владивосток: Изд-во Дальневосточного университета, 2004. – 168.; Макарова Н.Н. Риск-менеджмент: учебное пособие – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2009. – 170 с. Ступаков В.С., Токаренко Г.С Риск-менеджмент. Учебное пособие – М.: “Финансы и статистика”, 2005 г. – 184 с.; Гончаренко, Л.П. Риск-менеджмент: учебное пособие / Л.П. Гончаренко, С.А. Филин, Е.А.Олейников. — Москва : КноРус, 2016. — 215 с.; Покровский, А.К. Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учебное пособие / А.К. Покровский. — Москва: КноРус, 2016. — 160 с.; Барчуков, А.В. Базисная система риск-менеджмент организаций реального сектора экономики: монография / Д.В. Соколов, А.В. Барчуков. – Москва: НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 125 с.; Домашенко, Д.В. Управление рисками

Korxonalarda riskni boshqarish masalalari hamda mebel sanoati korxonalari faoliyati respublikamizdagi bir qator olimlar va tadqiqotchilar: M.Sharifxo‘jayev, Y.Abdullayev, Sh.N.Zaynutdinov, S.S.G‘ulomov, N.Q.Yuldashev, Q.Muftaydinov R.I.Nurimbetov, G.Sh.Xankeldiyeva, G.M.Ostonaqulova, I.Y.Umarov, K.U.Sharifxodjayeva, A.X.Islamkulov, J.X.Kambarov, M.S.Ashurov va boshqalarning asarlarida yoritilgan⁵.

Ammo raqobat sharoitida mebel mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarida risk menejmentni tashkil qilish va takomillashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmaganligi, mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bu esa mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona politexnika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, Menejment kafedrasining “Iqtisodiyotni transformasiyalash sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mebel sanoati korxonalari faoliyatida risklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mebel sanoati korxonalari faoliyatida risklarni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganish;

mebel sanoati korxonalarida risklarni tasniflash va boshqarish jarayonlariga yondashuvlarni tadqiq qilish;

mebel sanoati korxonalari faoliyatini rivojlanishini statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilish va o‘zgarish tendensiyalarini baholash;

mebel sanoati korxonalarida risklarga ta‘sir etuvchi omillarni hamda ularni boshqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash;

mebel sanoati korxonalari faoliyatida risklarni boshqarish jarayonida foydalanish uchun ko‘p omilli modellar va o‘rta muddatli davr uchun prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;

mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarish mexanizmlarini

в условиях финансовой нестабильности / Д.В. Домашенко, Ю.Ю. Финогенова. – Москва: Магистр, ИНФРА-М Издательский Дом, 2015. - 240 с.

⁵ Sharifxo‘jaev M., Abdullayev Y. Menejment. Darslik – T.: “O‘qituvchi”, 2001. – 280 b. Zaynutdinov Sh. Tavakkalchilikni boshqarish. O‘quv qo‘llanma – T.: “O‘zbekiston”, 2005. – 125 b.; G‘ulomov S. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. T., Mehnat, 1997. Yo‘ldoshev N.Q., Xaxidov G.E. Menejment: o‘quv qo‘llanma. – T.:O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. – 392 b.; Abdullayev, A., Muftaydinov Q., Aybeshov X. Kichik biznesni boshqarish. Toshkent, - Moliya nashriyoti, 2003, 192 b.; Xankeldiyeva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. 08.00.13 – Menejment. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2018. 145b.; G.M.Ostonaqulova. Innovatsiyalar sharoitida mebel mahsulotlari marketingi metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.11 – Marketing. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2019. 231 b.; Umarov I. Sanoatning mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli va o‘rni //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2015,№1, 34-43-b.; Sharifxodjayeva K., Islamkulov A., Sattarov B. Moliyaviy risklarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2017, 159 b.; Kambarov J.X. Ishlab chiqarish risklarining boshqarishning sanoat rivojlanishiga ta‘siri masalalari // Iqtisodiyot va moliya. 2019. №9, 48-56-b.

takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona viloyatidagi mebel sanoati korxonalari faoliyati va ulardagi risk boshqaruvi jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti mebel sanoati korxonalari faoliyatida risklarni boshqarish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruv munosabatlari majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, SWOT tahlili, induktsiya va deduktsiya, reytingli va balli tahlil qilish, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mebel sanoat korxonalarida risklarni baholashda risk xaritasini shakllantirishga ko'ra Bog'dod va Buvayda tumanlarini mebel sanoatiga ixtisoslashtirish taklifi asoslangan;

korxonalar risk darajasini "past ta'sirga ega (0-0,25)", "o'rtacha ta'sirga ega (0,26-0,5)", "yuqori ta'sirga ega (0,51-0,75)", "maksimal ta'sirga ega (0,76-1)" chegaralar doirasida baholash asosida mebel sanoatiga investitsiyalarni faol jalb qilish taklifi asoslangan;

mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi "reglamentlovchi", "ijrochi" va "operativ" boshqaruv jarayonlarni uyg'unlashtirish hamda mebel bo'yicha raqobatbardosh bo'lgan milliy brend mahsulotlarini ko'paytirishni hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

mebel sanoati korxonalarining o'rtacha risk koeffitsientini hisobga olgan holda mebel sanoati tarmog'i umumiy daromadlari hajmining 2027-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida iqtisodiy sharoitlardagi noaniqlik va nobarqarorlik ta'sirida risklarni boshqarish zarurati va uning oqibatlari ta'siri amaliy jihatdan asoslab berilgan;

mebel sanoati korxonalarida biznes jarayonlari ko'lamidan kelib chiqib risk yuki darajasini aniqlash maqsadida risklarni baholash ko'rsatkichlari tizimi takomillashtirilgan;

mebel sanoati korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy risklari turli xorijiy modellar, jumladan, R.Taffler va G.Tishouning to'rt omilli modeli, M.A.Fedotov modeli, E.Altmannning besh omilli modeli asosida baholangan va xulosalar shakllantirilgan;

mebel sanoati korxonalarida risklarni boshqarishning integratsiyalashgan strategiyasi hamda shu asosda sohani rivojlantirishning harakatlar dasturi ishlab chiqilgan;

mebel sanoati korxonalarida risklarni baholash, monitoring qilish va boshqarish tizimlarini o'z ichiga olgan risklarni boshqarish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasi milliy va nufuzli tashkilotlarning

rasmiy manbalaridan olinganligi, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari hamda nazariy ishlanmalar amaliy vazifalarni hal etishda qo'llanilishi, tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sanoat korxonalarida risklarni boshqarish yo'nalishidagi uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishda va ulardan kelgusida sanoat korxonalarida risklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy bazani boyitishga xizmat qilishi hamda keltirilgan takliflar va amaliy tavsiyalar mebel sanoati korxonalarida risklarni boshqarish mexanizmini takomillashtirishda qo'llash imkoni bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda, sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar ishlab chiqishda hamda tadqiqot ishi nazariy natijalaridan oliy ta'lim tizimida "Riskni boshqarish", "Menejment", "Moliyaviy menejment" fanlarini o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mebel sanoat korxonalarida risklarni baholashda risk xaritasini shakllantirishga ko'ra Bog'dod va Buvayda tumanlarini mebel sanoatiga ixtisoslashtirish bo'yicha taklifidan "2022-2026 yillarda Farg'ona viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 221-sonli qarori 3-ilovasida foydalanilgan ("Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi"ning 2023-yil 15-iyundagi 01-21/1723-son hamda Farg'ona viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2023-yil 16-oktabrdagi 36/4-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mebel sanoati korxonalarini faoliyatining istiqbolli imkoniyatlari hisobiga hududlarda mebel sanoati korxonalarini salohiyatidan foydalanish samaradorligi 10 foizli ijobiy samarasiga erishish imkoni paydo bo'ldi.

korxonalar risk darajasini "past ta'sirga ega (0-0,25)", "o'rtacha ta'sirga ega (0,26-0,5)", "yuqori ta'sirga ega (0,51-0,75)", "maksimal ta'sirga ega (0,76-1)" chegaralar doirasida baholash asosida mebel sanoatiga investitsiyalarni faol jalb qilish taklifidan "2022-2026 yillarda Farg'ona viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 221-sonli qarori 2-ilovasida foydalanilgan ("Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi"ning 2023-yil 15-iyundagi 01-21/1723-son hamda Farg'ona viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2023-yil 16-oktabrdagi 36/4-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida ichki va tashqi risklar hisobiga korxonalarining umumiy risk darajasini aniqlashga

hamda sohaga investitsiyalarni faol jalb qilishga qaratilgan risklarni boshqarish tizimida cheklangan resurslardan foydalanishni optimallashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish aniqligi ortgan hamda xarajatlarni boshqarish samaradorligi 5-7 % ga oshishiga erishildi.

mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi “reglamentlovchi”, “ijrochi” va “operativ” boshqaruv jarayonlarni uyg‘unlashtirish hamda mebel bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lgan milliy brend mahsulotlarini ko‘paytirishni hisobga olish orqali takomillashtirish bo‘yicha taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-sonli farmonining 5-bob 12-xatboshida foydalanilgan (“Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi”ning 2023-yil 15-iyundagi 01-21/1723-son hamda Farg‘ona viloyati Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2023-yil 16-oktabrdagi 36/4-son ma‘lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida risklar ta‘sirining salbiy oqibatlari hajmini maksimal aniqlashga hamda risklarni boshqarish tizimida cheklangan resurslardan foydalanishni optimallashtirishga qaratilgan risklarni boshqarishning ketma-ketligini ishlab chiqish va asoslash imkoniyati yaratildi.

mebel sanoati korxonalarining o‘rtacha risk koeffitsientini hisobga olgan holda mebel sanoati tarmog‘i umumiy daromadlari hajmining 2027-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilishi bo‘yicha ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mebel sanoati tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni boshqarish hamda tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni aniqlash imkoniyati kengaydi (“Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi”ning 2023 yil 15 iyundagi 01-21/1723-son hamda Farg‘ona viloyati Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2023-yil 16-oktabrdagi 36/4-son ma‘lumotnomalari).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta respublika va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi e‘tirof etgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda hamda 12 ta ma‘ruza tezislari ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi tarkibi kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obykti va predmeti shakllantirilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga

bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mebel sanoati korxonalarida risklarni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mebel sanoatining tarixiy rivojlanish davrlari, sanoatning xususiyatlari, mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarishning nazariy jihatlarini, maqbul risk konsepsiyasining prinsipial modeli, mebel sanoati korxonalarida risklarni tasnifi va ularni boshqarish xususiyatlari hamda mebel sanoati korxonalarida risk darajasiga ta'sir etuvchi risk omillarining tasnifi, risklarni boshqarish texnologiyasi, yo'nalishlari yoritilgan.

Bugungi kunda raqobat muhitining mavjudligi, iqtisodiy barqarorlikni saqlash maqsadidagi harakatlar risk va uni boshqarish muammolariga katta ahamiyat berishga majbur qiladi. Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining amal qilishi, resurslarning cheklanganligi, raqobatning ortib borishi, innovatsiya va investitsiyalardan foydalanish ehtiyojlari, raqamli texnologiyalardan foydalanish ehtiyojining ortib borishi va boshqa bir qator omillar iqtisodiyot subyektlarida turli xil risklarning paydo bo'lishini ta'minlash ehtimolligini oshiradi. Bu ishning dolzarbligi korxonalarda riskni aniqlash, baholash va boshqarish usullarini izlash va qo'llash zaruriyatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunga qadar risklarni izohlash uchun 100 dan ortiq ta'riflar keltirib o'tilgan. A.O'Imasov, A.Vahobovlarning ta'rifiga ko'ra, risk - bu firmaning ko'zlagan maqsadiga erishish yo'lida u duch keladigan iqtisodiy xavf-xatardir⁶. T.Malikov, O.Olimjonovlar fikricha esa, zararlarni vujudga kelishi yoki daromadlarning ko'zda tutilgan darajadan kamroq olinishi ehtimoliga risk deyiladi⁷.

Fikrimizcha, risk – oldindan belgilangan muayyan rejalardan chetga chiqishi, ya'ni zarar yoki foyda keltirishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlarning sodir bo'lish ehtimolligi.

Sanoat korxonalarida risklarni boshqarish korxonaning boshqaruv tizimidagi ajralmas qismi, boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilish tizimining uzviy elementidir. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida korxonaning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashning zaruriy sharti risklarni boshqarish tizimi, korxonani umumiy boshqarishning birligi bo'lib, u nafaqat maqsadlarni kelishish darajasida, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda amalga oshirishning muayyan tartib-qoidalarni kelishish zaruratida namoyon bo'ladi.

Sanoat tarmog'ining tarkibiy qismi hisoblangan mebel ishlab chiqarish sanoatida ham o'ziga xos risklar mavjud bo'lib, ushbu risklarni aniqlash uchun mebel bozori va mebel ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlari e'tiborga olinadi. Mebel bozori asosan iste'mol xarajatlaridan kelib chiqadi. Uzoq xizmat qiladigan tovarlar orasida mebelga bo'lgan talab yengil mashinalardan so'ng ikkinchi o'rinda turadi⁸.

Sanoat korxonalarida risklarni turli xususiyatlariga qarab tasniflash va


⁶ O'Imasov A., Vahobov A.. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Sharq, 2006. – 192-b.

⁷ Malikov T., Olimjonov O. Moliyaviy menejment. - T.:Akademiya, 1999.6-b., 26-b.

⁸<http://www.drwniklaster.hr/evolution-of-the-past-year/...>

tizimlashtirish ularni boshqarishning dastlabki asosiy shartidir. Shu sababli mebel sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobgan olib, risklarni ichki va tashqi risk guruhlariga tasniflash maqsadga muvofiq (1-rasm).

Mebel sanoati subyektlari faoliyatining o'ziga xosligi xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida yalpi qo'shilgan qiymatni tashkil etuvchi ko'plab boshqa subyektlar uchun keng assortimentdagi mahsulotlar yetkazib berishdan tashqari buyurtma asosida iste'molchi subyektlar uchun mahsulot yaratishidir.



1-rasm. Mebel sanoati korxonalarida risklarning tasniflanishi⁹

Mebel sanoati korxonalarida faoliyatidagi risklarni aniqlash va baholash, avvalo, ushbu tarmoq xususiyatlarini keng tahlil qilishga asoslanadi. Mebel sanoati

⁹ Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

tarmog‘i ishlab chiqarish xususiyatlariga ko‘ra quyidagi texnologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi: markalash, kesish, egish, presslash, delaminasiyalash, burg‘ulash, qayta ishlash va turli xil materiallarni shakllantirish, yig‘ish. Bunda xomashyo tarkibi yog‘och, metall, plastmassa yoki shisha bo‘lishi mumkin. Ushbu sohadagi aksariyat korxonalar bitta turdagi materiallardan mahsulotlar yaratishga ixtisoslashgan. Buning asosiy sababi yog‘och mebellarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan uskuna va jihozlar metall mebel ishlab chiqarish uchun uskunalaridan tubdan farq qiladi.

Dissertasiya ishining ikkinchi bobini “O‘zbekistonda mebel sanoati korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va ularda risklarni boshqarish samaradorligini baholash” deb nomlanadi hamda ushbu bobda O‘zbekistonda mebel sanoati korxonalarini faoliyati tahlili va ularni rivojlanish tendensiyalari holati, mebel sanoati korxonalarida risklarga ta’sir etuvchi omillar tahlili, mebel sanoati korxonalarini faoliyatiga risklarning ta’siri turli modellar asosida baholangan. O‘zbekiston Respublikasida 2013-2022-yillarda jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7,8 barobarga, uning tarkibida mebel ishlab chiqarish hajmlari esa qariyb o‘n barobarga oshgan (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekistonda mebel sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so‘m)¹⁰


	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022 yilda 2013 yilga nisbatan (marta)
Jami sanoat mahsulotlari	70 634,8	84 011,6	97 598,2	111 869,4	148 816,0	235 340,7	322 535,8	368 740,2	456 056,0	551 050,8	7,8
Mebel ishlab chiqarish	349,0	491,4	614,8	1 371,4	1 513,7	1 694,9	2 299,1	2 097,3	3 059,8	3404	9,8
To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	8 898,3	10 839,5	13 241,7	13 335,3	16 763,3	24 835,2	29 946,6	36 713,9	52 372,3	62 757,0	7,1
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	1 183,6	1 402,0	1 936,8	2 245,3	3 650,3	5 093,8	5 628,8	7 063,3	11 064,1	11 892,2	10,0
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	348,4	527,2	757,9	981,4	1 414,6	1 647,9	1 588,8	1 616,9	2 083,9	2 188,9	6,3

Hozirda mamlakatimizda 3300 dan ortiq mebel korxonalarini mavjud. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan mebel hajmi 2013-yilda 349 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatgich 3404 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Bundan

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan

ko‘rinadiki, mebel sanoati tarmog‘i o‘shish imkoniyatlari keng va uning iste‘moli oshib bormoqda.

Mamlakatimizdan 2013-2022 yillar o‘ralig‘ida jami sanoat mahsulotlari hajmi va uning tarkibida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish ulushining o‘zgarish dinamikasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. O‘zbekistonda jami sanoat mahsulotlari hajmi hamda uning tarkibida mebel mahsulotlari ulushi¹¹

Tahlil amalga oshirilayotgan davrda mebel sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi qiymat jihatidan ortib borgan bo‘lsa-da, uning jami sanoat mahsulotlari tarkibidagi ulushi o‘zgaruvchan dinamikani ko‘rsatmoqda hamda 2022-yilda 0,62 %ga yetganligini kuzatish mumkin. Mebel mahsulotlarining ulushi 2016-yilda keskin oshishi bir qator omillar: importning ortishi, va aksincha eksportning kamayishi, demografik o‘shish, aholi daromadlarining ortganligi, sanoatning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi ta’sirida sodir bo‘lgan.


Korxonalarda har qanday risk omili u qaysi risk guruhiga mansub bo‘lmasin, oxir-oqibat moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga, kutilmagan zarar yoki kutilgan daromadlarga erisha olmaslik ko‘rinishida ta’sir o‘tkazadi. Shundan kelib chiqib korxonalarda moliyaviy riskni baholash modellari asosida risklarni baholash maqsadga muvofiq.

Ilmiy tadqiqot davomida ekspert baholash usulida ekspertlardan olingan fikrlarini tahlil qilgan holda mebel sanoati subyektlari uchun risk xaritasi va matrisasi (3-rasm) tuzildi, bunda mebel sanoati korxonalariga salbiy oqibatlar keltiruvchi eng keng tarqalgan tendensiyalar aks ettirilgan.

Rasmdagi ma’lumotlarga ko‘ra, eng katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mebel korxonalarining ichki risklari, boshqaruv xarajatlari o‘rtachadan past darajada bo‘lib, bizga 2-rang guruhini belgilashga imkon berdi va

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan

ularni risklarni boshqarish ketma-ketligida birinchi o‘ringa qo‘yish kerakligini ko‘rsatdi.



3-rasm. Mebel sanoati subyektlari risk xaritasi va matrisasi¹²

Mebel sanoatining tashqi risklari guruhi ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Bu biznes jarayonlari uchun nisbatan yuqori darajadagi ahamiyatga ega va risklarning yuzaga kelish ehtimoli o‘rtacha, lekin ularni boshqarish xarajatlari tezkor, javob berish uchun juda yuqori. Shu sababli boshqaruv xodimlari ushbu guruhga faqat oxirgi chora sifatida e‘tibor berishlari kerak. Qolgan guruhlar tavsiya etilgan risklarni boshqarish bo‘yicha reyting ketma-ketligining 3-5 rang guruhlarida ichida taqsimlanadi.

¹² Ekspert baholash usuli asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2023-yilda Farg'ona viloyatida mebel ishlar chiqarish bo'yicha 4 ta shahar va 15 ta tumanlarning ulushlari tahlil qilinganda Bog'dod tumani eng katta 35.7% ulush bilan dastlabki o'rinda, Buvayda tumanini 2.6 % bilan keyingi o'rinlarda ko'rsatish mumkin. Shuningdek, Farg'ona viloyatida hozirda 510 ta mebel korxonasi mavjud bo'lib, undan Bog'dod tumanida 252 ta va Buvayda tumanida 25 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu tumanlarning viloyat mebel mahsulotlari ishlab chiqarishda katta salohiyat, tajriba va raqobatbardoshlik xususiyatlariga ega ekanligidan kelib chiqib, tadqiqot ishida risk xaritasi shakllantirish va korxonalar riskini to'g'ri boshqarish asosida Bog'dod va Buvayda tumanlarini mebel sanoatiga ixtisoslashtirish imkoniyatini oshirish orqali mebel ishlab chiqarish hajmini sifat va hajm jihatdan ko'paytirish mumkinligi asoslangan.

Mebel sanoati korxonasining umumiy risk darajasini xarakterlovchi integral ko'rsatkichni quyidagi formula yordamida hisoblash maqsadga muvofiq:

$$UR_x = \sqrt[n]{\prod_{i=1}^n UR_i} \quad (1)$$

bu yerda UR_i – umumiy risk darajasi ko'rsatkichi;

i – sonli risk guruhi;

n – korxonaning umumiy risk darajasini shakllantiruvchi va belgilovchi tanlangan asosiy risk guruhlari soni.

i -sonli risk guruhi darajasining umumlashgan ko'rsatkichi quyidagi bog'lanish asosida aniqlanadi:

$$UR_i = \sqrt[k]{\prod_{j=1}^k R_j} \quad (2)$$

bu yerda k – tanlangan risk guruhi darajasini tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlar soni;

R_j - haqiqiy ko'rsatkichning reja (me'yoriy) qiymatdan og'ishi asosida aniqlangan xususiy risk koeffitsienti

$$R_j = 1 - \frac{Res_j^r}{Res_j^r + [Res_j^h - Res_j^r]} \quad (3)$$

bu yerda: Res_j^r – j -ko'rsatkichning reja (me'yoriy) qiymati;

Res_j^h – j -ko'rsatkichning haqiqiy qiymati.

R_j – ko'rsatkichning xususiy risk darajasi qiymati noldan birgacha bo'lgan oraliqda ($0 \leq R_j < 1$) yotadi.

Tadqiqot davomida o'rganilayotgan mebel korxonalar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan 4 ta risk guruhi hamda har bir guruh tarkibida xususiy risklardan iborat ko'rsatkichlar belgilab olindi. Shuningdek, har bir guruh uchun xususiy risk koeffitsientlari asosidagi umumlashgan ko'rsatkichlar aniqlandi. Tadqiqot ishida “Davrdurdona mebel”, “Okkin” mebel, “Mebel mega servis” korxonalar uchun umumiy risk darajasini xarakterlovchi integral ko'rsatkich aniqlandi. Olingan natijalar “past ta'sirga ega (0-0,25)”, “o'rtacha ta'sirga ega (0,26-0,5)”, “yuqori ta'sirga ega (0,51-0,75)”, “maksimal ta'sirga ega (0,76-1)” risk zonalariga joylashtirildi. “Davrdurdona mebel” va Okkin mebel korxonalarida integral risk darajasi past ta'sir darajasiga ega bo'lgan $UR_x = 0 - 0,25$ oraliqdagi zonada joylashganligi aniqlanadi. “Mebel mega servis” korxonasi uchun integral

risk ko‘rsatkichi 0,2646 ni tashkil etib, korxonalar risk holati o‘rtacha ta’sirga ega zonaga to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatmoqda. Bunga sabab korxonaning rejalashtirilgan va haqiqiy qiymatlari o‘rtasidagi farqning oshib borishi. Shu o‘rinda korxonalar uchun ushbu farq salbiy tomonga ta’sir qilish bilan birga ijobiy natijaga olib kelishi ham mumkin. Taklif etilayotgan riskni baholash ko‘rsatkichi mebel sanoati korxonalari uchun haqiqiy qiymatlarga erishishdagi o‘gishlarni aniqlash hamda shu asosda risklarni tahlil qilishga imkon beradi.

Jahon amaliyotida korxonalarda riskni tashxislash maqsadida turli modellardan foydalaniladi. Ushbu modellar orasida korxonalarda riskni tashxislashning prognozlashtirish usullarini qo‘llash eng keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Tadqiqot doirasida ushbu usullardan foydalanib, R.Taffler va G.Tishoularning moliyaviy beqarorlikni ifodalovchi Z-hisob to‘rt omilli modeli¹³, M.A.Fedotov modeli¹⁴, E.Altmanning besh omilli modeli¹⁵ni qo‘llash asosida mebel korxonalaridagi riskni aniqlash bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi (2-jadval).

2-jadval

Xorijiy modellar orqali mebel korxonalarida inqiroz riskini baholash¹⁶

Korxonalar	Hisoblash natijalari		
	R.Taffler va G.Tishouning to‘rt omilli modeli	M.A.Fedotov modeli	E.Altmanning besh omilli modeli
	Me‘yor=0,3 Z<0,2 bankrotlik ehtimoli mavjud	Me‘yor=0 Z<0 korxonada to‘lov layoqati mavjud	Me‘yor=1,23 Z<1,23 yuqori bankrotlik ehtimolligi
“Okkin” mebel	3,12>0,3	-1,73<0	1,21<1,23
“Davr-durdona” mebel	2,75>0,3	-16,79<0	0,65<1,23
“Mebel mega servis” korxonasi	0,939>0,3	-2,24<0	2,55>1,23

R.Taffler va G.Tishouning to‘rt omilli Z-hisobi modelida me‘yoriy ko‘rsatkich 0,3 b ga teng. Tahlil etilgan korxonalaridagi ko‘rsatkichlar 0,3 dan yuqori bo‘lganligi sababli R.Taffler va G.Tishouning to‘rt omilli Z-hisobi modeli talablariga javob beradi. Agarda ko‘rsatkichlar 0,3 dan kam miqdorni tashkil etsa, risk ehtimoli mavjudligini anglatadi.

M.A.Fedotov modeliga ko‘ra to‘lovga layoqatli, barqaror korxonalar uchun me‘yoriy ko‘rsatkich 0,3 ga teng. Tahlil etilgan barcha korxonalarda ko‘rsatkichlar 0 dan kichik miqdorni tashkil etgani bois, korxonalar to‘lovga qobiliyatli, degan xulosaga kelish mumkin. E.Altmanning besh omilli modeli bo‘yicha me‘yoriy ko‘rsatkich 1,23 ga teng. Tahlil natijalari “Davr durdona mebel” korxonasida risk ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. “Okkin” mebel korxonasida esa risk ehtimoli nisbatan kamroq miqdorni tashkil etmoqda.

Fikrimizcha, yuqoridagi modellar g‘arbiy davlatlardagi korxonalarini

¹³ Антикризисное управление: Учебник/Е.П.Жарковская, Б.Е.Бродский.—М.: Омега-Л, 2004. — 137 с..

¹⁴ Фомин Я.А. Диагностика кризисного состояния предприятия: Учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2003. – 43 с.

¹⁵ Антикризисное управление предприятием: учебное пособие / сост. Т. Н. Рогова; Улян. гос. техн. Ун-т. – Ульяновск : УлГТУ, 2014. – 61-62 с.

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

o'rganish natijasida ishlab chiqilgani bois ularni O'zbekiston sharoitida tatbiq etishda iqtisodiyotimizning o'ziga xos jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim. R.Taffler va G.Tishouning moliyaviy beqarorlikni ifodalovchi Z-hisob to'rt omilli modelini mamlakatimiz mebel sanoati korxonalarida qo'llash mumkin. Chunki ushbu model korxonalar moliyaviy holatiga oid ko'rsatkichlarni barchasini qamragan bo'lib, oddiy hisoblarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari risklarni baholashning yana bir qancha modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan reytingli moliyaviy tahlilning to'rt omilli modeli hamda reytingli moliyaviy tahlilning besh omilli modeli mebel sanoati korxonalarida risklarni baholash imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval

Mebel sanoati korxonalarida risklarni baholash¹⁷

Modellar nomi	Mezoni	Okkin mebel	Davr-durdona mebel	Mebel mega servis korxonasi	Firdavs mebel
1. Reytingli moliyaviy tahlilning to'rt omilli modeli	1	5,02	1,21	4,30	1,20
–Joriy likvidlik koeffitsiyenti	≥ 2	0,62	5,14	18,55	1,55
–Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	$\geq 0,1$	2,33	0,32	0,34	-0,23
–Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi	≥ 6	1,72	2,61	4,76	2,90
–O'z mablag'lari rentabelligi	$\geq 0,2$	0,21	0,73	0,76	1,17
2. Reytingli moliyaviy tahlilning besh omilli modeli	1	4.22	2.05	5.01	0.95
–Joriy likvidlik koeffitsiyenti	≥ 2	0,55	5,12	18,55	1,55
–Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	$\geq 0,1$	2,43	0,39	0,34	-0,23
–Aktivlar aylanuvchanligi koeffitsiyenti	$= 2,5$	0,34	1,13	3,81	1,01
–O'z mablag'lari rentabelligi	$\geq 0,2$	0,33	0,75	0,76	1,17
–Sotilgan mahsulot rentabelligi	$= 0,45$	0,30	0,38	0,09	0,66

Yuqorida keltirilgan modellarda korxonalarining haqiqiy natijalari $R_h < 1$ ni tashkil etadigan bo'lsa, tahlil qilinayotgan korxonalar qoniqarsiz moliyaviy holatga ega sanaladi. Qoniqarsiz natija $\Delta R = R_e - R_h$ qancha yuqori chiqadigan bo'lsa, moliyaviy holatga riskning ta'siri ham shuncha yuqori bo'ladi. Agar korxonalarining haqiqiy natijalari $R_h > 1$ ni tashkil qilsa moliyaviy holat yaxshilanayotganligidan dalolat beradi. Ko'rinadiki, Firdavs mebel korxonasida moliyaviy holatga riskning ta'siri sezilmoqda. Bunga asosiy sabab uning xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti me'yordan kam darajani ko'rsatmoqda. Shuningdek korxonada joriy likvidlik koeffitsiyenti va aktivlar aylanuvchanligi koeffitsiyentlari ham me'yoriy darajada emas.

¹⁷ Korxonalarining balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Dissertatsiya ishining “**Mebel sanoati korxonalarida riskni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va modellashtirish istiqbollari**” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda mebel sanoati korxonalarini faoliyatining rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash, mebel korxonalarining faoliyat samaradorligini risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali oshirish, risklarni boshqarishning integratsiyalashgan strategiyasini yaratish masalalari o‘rganildi va takliflar ishlab chiqildi.

O‘zbekistonda mebel sanoati korxonalarida mebel ishlab chiqarish hajmini modellashtirish ishlab chiqarish sohasida yuz beradigan trendlar, tendensiyalar, vaqtli qatorlar kabi modellar yordamida amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot davomida mamlakatimizda mebel sanoati tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish hajmi va unga ta’sir qiluvchi bir nechta ko‘rsatkichlarni 2011-2022 yillar oralig‘idagi o‘zgarish tendensiyasi o‘rganildi (4-jadval).

4-jadval

Mebel ishlab chiqarish hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari¹⁸

Yillar	Mebel ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m (Y)	O‘rtacha bir aholiga mebel ishlab chiqarish hajmi, ming. so‘m (X ₁)	Mebel mahsulotlarini sotish hajmi, mlrd so‘m (X ₂)	Mebel sanoati korxonalarining o‘rtacha risk koeffitsiyenti, birlik (X ₃)	Mebel sanoatida tadbirkorlik subyektlari soni, dona (X ₄)	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi, ming so‘m (X ₅)
2011	207,6	7,9	75,1	0,56	1085	2729,9
2012	228,0	9,7	85,7	0,65	1284	3267,8
2013	349,0	12,5	146	0,68	2134	3902,7
2014	491,4	16,2	341	0,72	2336	4472,0
2015	614,8	19,8	472,9	0,54	2385	5127,5
2016	1 371,4	43,4	655,9	0,78	2508	5887,9
2017	1 513,7	47,1	909,6	0,64	2615	6681,4
2018	1 694,9	51,9	1261,4	0,75	2697	7767,0
2019	2 299,1	69,1	1749,4	0,82	2925	9509,6
2020	2 097,3	61,8	2426,1	0,69	3219	10734,2
2021	3 059,8	88,5	3364,6	0,87	3336	13416,7
2022	3404,0	96,5	4666,2	0,85	3753	15979,3

Aniqlangan ma’lumotlardan foydalangan holda mebel sanoatidan olinadigan daromadlar hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi

$$\ln Y = 0,979 \cdot \ln X_1 + 0,057 \ln X_2 - 0,007 \cdot \ln X_3 + 0,309 \cdot \ln X_4 - 0,095 \cdot \ln X_5 + 1,52 \quad (4)$$

regressiya tenglamasi tuzildi.

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potentsirlanib, O‘zbekistonda mebel sanoatida ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko‘rinishdagi ko‘p omilli ekonometrik model ishlab chiqildi:


¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

$$Y_1 = \frac{X_1^{0,979} \cdot X_2^{0,057} \cdot X_4^{0,309} \cdot e^{1,52}}{X_3^{0,007} \cdot X_5^{0,095}} \quad (5)$$

Ushbu modeldan foydalangan holda mebel sanoatida ishlab chiqariladigan mebel hajmining o‘rta muddatda, ya’ni 2011-2027 yillarda o‘zgarishi qiymatlarini grafikda ko‘rinishi ifodalandi (4-rasm).

Mebel sanoatida ishlab chiqariladigan daromadlar hajmiga omillar ta’siri asosidagi rivojlanish ssenariysi ishlab chiqildi. Aniqlangan trendlardan foydalanish sohaga kiritilayotgan resurs hajmini to‘g‘ri taqsimlagan holda resurs birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi.

